

# ARAB ADABIYOTIDA BALOG'AT ILMINING SHAKLLANISHI VA TADRIJIY RIVOJI

*Hadis ilmi maktabi o'qituvchisi:*

*Xursanmurodov Tolibboy Shukrullo o'g'li*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dastlab, badiiyatshunoslik balog'at ilmining fan sifatida shakllanishi bu borada asarlar yozgan olimlar haqida so'z boradi. Balog'at ilmi Qur'on va hadisning nozik jihatlarini tushunishda asosiy vosita ilm ekani ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** Balog'at, badiiyat, bayon, ma'oniy, bade', isti'ora, majoz, grammatika.

**Annotation:** This article first discusses the formation of the science of rhetoric as a discipline, and the scholars who wrote works on this subject. It is emphasized that rhetoric is a key tool in understanding the subtleties of the Quran and Hadith.

**Keywords:** Eloquence, art, statement, meaning, art, metaphor, simile, grammar

**Аннотация:** В статье впервые рассматривается становление литературной критики как дисциплины и ученые, писавшие труды по этой теме. Подчеркивается, что знание является главным инструментом в понимании тонкостей Корана и хадисов.

**Ключевые слова:** Красноречие, искусство, утверждение, смысл, искусство, метафора, сравнение, грамматика.

Arab tili dunyodagi tillar ichida ko‘p o‘rganilgan va hanuz o‘rganilayotgan tildir. Lug‘at boyligi, bir lug‘atning bir necha uslubda ishlatalish imkoniyatlari ko‘pligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, shevalari ko‘p tillardan hisoblanadi. Bu til Qur’oni karim tili bo‘lgani uchun ham uni o‘rganish yo‘llari ilgarigi zamonlardanoq ishlab chiqilgan. Arab tilini o‘rganish uchun ham boshqa tillarni bilib olish uchun kerak bo‘ladigan fonetika-grammatika, ya’ni arablar istelohidaga sarf va nahv ilmi mukammal o‘rganiladi. Arab tilida mukammal gaplashish va uni yaxshi tushunish

uchun, albatta, “balog‘at fani” deb nomlanuvchi arab adabiyoti badiiyatshunosligi qoidalarini yaxshi bilish kerak. Mazkur qoidalar arab tili ruhini to‘la ochib bergani uchun ularni bilish Qur’oni karim, hadisi shariflar, shariat kitoblari hamda buyuk arab shoirlarining ijodlari mahsulidan bahramand bo‘lish va tug‘ri idrok etish imkonini beradi. Shuning uchun ham arab adabiyoti badiiyatshunosligi fanining arab tilini o‘rganish, lug‘at unsurlarini mukammal tushunish, she’riyat, adabiyot, badiiy janrlar va arab tili go‘zalligini ochib berishda ahamiyati yuksakdir. Tilshunos olimlar badiiyatshunoslik ilmini ta’riflab, u haqda shunday deganlar:

«البلاغت مطابقة الكلام لمقتضيات الحال»<sup>1</sup>

«Balog‘at<sup>2</sup> – kalomning holat taqozosiga muvofiq kelmog‘idir».

Asarlardagi ma’lumotlar turli xil bo‘lsada umumiy ma’no bir-biriga yaqin, lug‘atda esa balog‘at so‘zi ”النهاية“ - “(bir narsaga) yetish, oxiriga yetish”<sup>3</sup> ma’nolarini anglatadi. Tilshunoslikda esa nutqdan ko‘zlangan yetuk darajadagi ma’noni to‘g‘ri fasohat bilan yetkazishga aytildi. Unda har bir gap munosib o‘rinda keladi va eshitgan ko‘ngillarga yaxshi ta’sir etadi.

Arab adabiyoti badiiyatshunosligi ilmining til sirlarini ochishda betakror o‘rni va uslublari bor. Til xazinalarini kashf etish, ya’ni ochib berishda, nozik, nafis va daqiq jihatlarini o‘rganishda u beqiyosdir. Bu ilm aqlarni lol qoldiradigan so‘z o‘yinlari, bir kalimani turli ma’nolarda nuqson siz ishlatish malakalarini rivojlantiradi. Inson ko‘nglidagi maqsadini chuqurroq va kengroq, so‘z bezaklari, tushunmovchiliklardan xoli qilib ifodalash tajribasini kamolga yetkazadi. Zero, shu nozik jihatlari bilan arab tili boshqa tillarda uchramaydigan ma’nolarni ifodalashda o‘ziga xoslik, go‘zallik, betakrorlik va ulug‘likka egadir.

Arab badiiyatshunosligi fani qachon yuzaga kelganligi haqida turli fikrlar bor. Dastlab, bu ilm alohida fan sifatida o‘rganilmagan. Johiliya davrida, ya’ni arablarga

<sup>1</sup> ابو يعقوب يوسف بن ابي بكر محمد السكاكى. مفتاح العلوم. – بيروت: دار الكتب، 1983. – ص. 188.

<sup>2</sup> Arab tilida badiiyatshunoslik fani “balog‘at fani” deb nomlanadi. Bu fan ritorika, aruz va shunga o‘xshash badiiyatshunoslikning barcha bo‘limarini o‘z ichiga oladi.

<sup>3</sup> “Ан-Наъйм ул-Кабир” арабча-ўзбекча луғат. – Наманган: “НАМАНГАН” нашриёти, 2014. – Б.11.

islom kelishidan avval ham ular orasida badiiyatshunoslik ilmi bor edi. Lekin, alohida fan sifatida o‘rganilmas, balki, she’rayat va so‘zlashuv munozaralarida keng foydalanilgan va qo‘llab kelingan. Arablarga islom kelishidan avval bu ilm shu darajada takomillashib ketganki, turli yig‘inlarda qabilalar o‘rtasida sheriyat borasida musoboqalar o‘tkazilgan va bir qabilaning boshqasidan ustunligi she’riy munozara va muborazalar orqali aniqlangan.

Badiiyatshunoslik ilmlarida hijratning II asridan boshlab kitoblar bitila boshlangan. Ushbu ilmlardan birinchi bo‘lib bayon ilmida kitob yozilgan deyish mumkin. 206 hijriy sanada vafot qilgan Abu Ubayda Ma’mar ibn Musanna at-Taymiy<sup>4</sup> bo‘lib, uning “Majozul Qur’on” kitobini bayon ilmida yozilgan birinchi va alohida ilm sifatida shakllanishiga tamal toshini qo‘ygan asar deyish mumkin. Abu Ubayda Yunus ibn Habibning shogirdi bo‘lib, Sibavayhning ustozidir.

Balog‘at ilmlariga tegishli asarlar va ularning mualliflari maoniy ilmida birinchi qalam tebratgan olimning nomi ma’lum emas. Ba’zi risola va asarlarida Ja’far ibn Yahyo, Sahl ibn Horun kabi bir qancha olimlar maoniy ilmi haqida so‘z yuritganlar. Maoniy ilmida birinchi bo‘lib alohida kitob yozib, uni mustaqil fan sifatida o‘rgangan kishi Amr ibn Bahr Johizdir. Uning “Al-bayon vat-tabyin” hamda “Ijozul Qur’on” (Qur’on mo‘jizalari) nomli kitoblari o‘z vaqtida mashhur va mo‘tabar bo‘lgan. Undan keyin bu ilmda Abu Abbos Mubarrad va Qudoma ibn Ja’far Kotib va boshqalar asarlar bitganlar.

U ilm sifatida to‘g‘ri va o‘rinli so‘zlash usullari va qoidalarini o‘rganuvchi uchta ilmgaga bo‘linadi: ma’oniy, bayon va bade’. Arab tili va adabiyotiga oid fanlar ichida badiiyatshunoslik eng oxirgi mustaqillikka erishgan. Chunki Qur’on badiyatini anglash uchun musulmon xalqlari, turli avlodlar bu masala ustida uzoq vaqt ish olib borishlarini kutish, badiiyatshunoslikning tamoyillari, usuli va istilohlarini ochib berish kerak edi. Biroq bu tarixiy jarayondan so‘ng balog‘at mustaqil fanga aylandi.

<sup>4</sup> 110- hijriy yilda Umaviylar halifaligi davrida Basra shahrida tug‘ilgan. Basra shahrida yashab ijod qilgan, asarlar yozgan, ta’lim va tadrис bilan shug‘illangan. Tarixchi, nasabshunos, olim kishi bo‘lgan. Horun ar-Rashid u kishining shogirdi bo‘lgan. 209- hijriyda Abbosiylar davrida vafot etgan. “Kutubud-diyniyya”, “Kutub fi axboril-arab”, “kutub fi tarixil-arab qoblal-islam”, “Kutub fi axboril-qobail” “kutub anil-ahadis” va yana ko‘plab asarlari mavjud.

Badiiyatshunoslikning uchinchi qismi hisoblangan bade' ilmida birinchi kitob Abdulloh ibn Mo'taz Abbosiyning (296 hijriy sanagacha yashagan) kitobi hisoblanadi. Shungacha shoirlar she'rlarini bade' ilmining ba'zi turlarida ijod qilardilar. Ibn Mo'taz bade'ning o'n navini jamladi. Uning asrdoshi Qudoma ibn Ja'far bularni o'r ganib chiqib, navlar sonini yigirmataga yetkazdi. Bularning yetti navida Abdulloh navlariga muvofiq keldi. Qolgan o'n uch navi yangilik edi. Abdulloh bundan ilhomlandi va izlanib, yana o'n yetti nav kashf etdi. Shunday qilib, bade' ilmining navlari jami o'ttiztaga yetdi.

Ibn al-Muqoffa (vaf. 142/759)<sup>5</sup>, Johiz (vaf. 255/869), Qudoma ibn Ja'far (vafoti 337/948) va Rummoniy (384/994) largacha notiqlik tug'ma iste'dod va san'atga moyillik sifatida tushunilgan. Aslini olganda, Ibn al-Muqoffa fikricha, badiiyatshunoslik so'zni hamma ham osonlikcha aytolmaydigan tarzda aytishdir. Johizning fikriga ko'ra, so'z va ma'no bir-biri bilan go'zallikda musobaqalashadi, ya'ni so'z ma'nodan oldin qulqoqqa, ma'no esa so'zdan oldin aqlga tez yetib boradi<sup>6</sup>. Rummoniyning fikricha, aksincha, go'zal va o'rinali iboralar bilan ma'noni aqllarga yetkazishdir.

Keyingi asrlarda har bir olim bu ilmning rivojiga hissa qo'shib bordi. Natijada bade' ilmida mo'tabar va nodir hisoblangan kitoblar birin-ketin dunyo yuzini ko'ra boshladi. Abu Hilol Xasan ibn Abdulloh ibn Sahl Askariyning (395 hijriy) "Sanoatayn", Abu Ali Hasan ibn Rashiqning (409 h.) kitoblari shular jumlasidandir.

Arab tilshunosligi tarixidan ma'lumki, arablar o'z tillarining grammatiskasini tadqiq qilishni boshlaganlarida avval sintaksis (علم النحو), keyin morfologiya bo'limi vujudga kelgan. So'ngra – علم البلاغة – stilistikaning asoslari yaratilgan. Ammo o'sha davrda mazkur fan bo'yicha alohida kitob mavjud bo'lmay, faqtgina

<sup>5</sup> To‘liq ismi Abu Muhammad Abdulloh al-Muqoffa Eronning Feruzobod shuahrida milodiy 724 yilda tug‘ilgan. Fors majusiy oilasida tug‘ilgan va shu e’tiqodida bo‘lgan. Islom diniga kirishidan oldin forsiy ismi Ruzba ibn Daziyya bo‘lgan. Keyinchalik islomni qabul qilgan. Hijriy ikkinchi, milodiy sakkizinchisi asrda Umaviy va Abbosiylar davrida Basrada istiqomat qilgan. 759- yil Iroqning Basra shahrida vafot etgan. Fors va arab tillarida ijod qilgan. **الكلية للأدب الصغير** va **الأدب الكبير**. Uning nomli asarini **العمدة** asarlari, **البيان** va **التبيين**, Al-Jahizning **الكامل**, Mubarradning **العامدة**, shuniungdek, asarlari darajasida deb xisoblashgan.

<sup>6</sup> عمرو ابن بحر جاهز. البيان و التبيان. الجزء الأول. - قاهرة: مكتبة الاسرار، 1993. - ص. 115.

ushbu ilmga oid alohida savollarga javob tariqasida yozilgan kichik hajmdagi risolalargina mavjud edi. Keyinchalik stilistika fani rivojlana borgani sari alohida asar yozish ehtiyoji tug‘ilgan.

Badiiyatshunoslik ilmiga oid birinchi kitobni yozgan olim Abu Ubayda (vaf. 825y.) bo‘ladi. Uning مجاز القرآن<sup>7</sup> nomli asari mashhurdir. Bu kitob Qur’oni karimning ma’nolari va bayon uslublari haqida yozilgan, majozga bag‘ishlangan. Keyingi asrlarda balog‘at ilmi rivojlanib borib, u haqida yozilgan asarlar ham ko‘payib borgan.

<sup>7</sup> Tarixchilar bu asarni muallif tomonidan yozganligini sababini quyidagicha keltirishadi: Fazl ibn Robianing kotiblaridan biri Abu Ubaydan Qur’oni karimdagi majoz keltirilgan bir oyatning qaysi ma’noda, ya’ni oyatdagi ma’nodan nima iroda qilinishi haqida so’raydi. Abu Ubayda savolga javob beradi va Qur’onning majoz o‘rinlarini ochib beruvchi bir asar yozishni maqsad qiladi.